PASHTU VA O'ZBEK TILLARIDA MODAL MA'NO IFODALOVCHI FE'L BIRIKMALARINING QIYOSIY TAHLILI

Marjona Sh. Panoyeva
Lingvistika pashtu yo'nalishi 2-bosqich magistr talabasi
Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston
marjonapanoyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va pashtu tillarida modal ma'noning fe'l birikmalari hamda predikativ konstruktsiyalar orqali ifodalanish xususiyatlari qiyosiy aspektda tadqiq etiladi. Tadqiqot markazida zaruriyat, majburiyat, imkoniyat, ehtimollik, ruxsat va qobiliyat kabi modal ma'nolarni ifodalovchi o'zbek tilidagi kerak, lozim, shart, mumkin, bil, ol kabi vositalar hamda pashtu tilidagi باید / bāyad, دې / de, بنايي / ṣāyi, کولای شم / kawəlāy šəm, کېدای شي / kedāy ši singari konstruktsiyalar turadi. Tadqiqotda modal ma'noning faqat leksik birliklar orqali emas, balki fe'lning mayl shakllari, yordamchi va modal birliklar, shuningdek analitik konstruktsiyalar orqali ham yuzaga kelishi aniqlanadi. Funksional-semantik va qiyosiy-tipologik yondashuv asosida ikki tilda deontik va epistemik modallikning ifodalanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Natijalar o'zbek tilida modal ma'noning asosan modal-predikativ birliklar va analitik fe'l konstruktsiyalari orqali, pashtu tilida esa modal birliklar, subjunktiv shakl va kawəl asosidagi potensial konstruktsiyalar o'zaro birikishi orqali ifodalanishini ko'rsatadi.

Аннотация: В данной статье в сопоставительном аспекте исследуются особенности выражения модального значения посредством глагольных сочетаний и предикативных конструкций в узбекском и пушту языках. В

центре внимания находятся узбекские средства выражения необходимости, обязательности, возможности, вероятности, разрешения и способности — kerak, lozim, shart, mumkin, -A bil-, -A ol-, а также пушту باید / bāyad, دي / de, ښايي / ṣāyi, کولای شم / kawəlāy šəm, کېدای شي / kedāy ši. На основе функционально-семантического и сопоставительно-типологического подходов анализируются механизмы выражения деонтической и эпистемической модальности. Устанавливается, что в узбекском языке модальность преимущественно реализуется посредством модально-предикативных слов и аналитических глагольных конструкций, тогда как в пушту существенную роль играют модальные частицы, сослагательное наклонение и потенциальные конструкции с kawəl.

Abstract: This article presents a comparative analysis of modal meanings expressed through verbal combinations and predicative constructions in Uzbek and Pashto. The study focuses on Uzbek modal expressions such as kerak, lozim, shart, mumkin, -A bil-, -A ol- and Pashto forms including bāyad, de, ṣāyi, kawəlāy šəm, kedāy ši, which express necessity, obligation, possibility, probability, permission, and ability. Using functional-semantic and comparative-typological approaches, the article examines the mechanisms of deontic and epistemic modality in the two languages. The analysis demonstrates that Uzbek predominantly employs modal-predicative words and analytical verbal constructions, whereas Pashto combines modal particles, subjunctive forms, and potential constructions based on kawəl.

KALIT SO‘ZLAR: o‘zbek tili, pashtu tili, modallik, modal ma’no, modal fe’l birikmasi, zaruriyat, imkoniyat, ehtimollik, deontik modallik, epistemik modallik, qiyosiy tilshunoslik.

Bugungi zamon tilshunosligida modallik kategoriyasi til orqali voqelikni shunchaki tasvirlash emas, balki so‘zlovchining mazkur voqelikka bo‘lgan

munosabatini ifodalash mexanizmi sifatida talqin qilinmoqda. Modallik doirasida zaruriyat, imkoniyat, ehtimollik, majburiyat, ruxsat, istak, taxmin, ishonch va boshqa semantik munosabatlar mujassamlashadi. Shu sababli modal ma’no grammatik kategoriya, leksik birlik va sintaktik konstruktsiyalarning o‘zaro munosabati asosida yuzaga keladigan murakkab funksional-semantik hodisa hisoblanadi[1].

Modal ma’nolarni ifodalash vositalari tillarning grammatik tuzilishiga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Ayrim tillarda modal ma’no maxsus modal fe’llar orqali ifodalansa, boshqa tillarda predikativ modal so‘zlar, yuklamalar, mayl shakllari yoki analitik fe’l konstruktsiyalari faol qo‘llanadi. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek va pashtu tillari qiziqarli qiyosiy material beradi. Har ikki tilda zaruriyat, imkoniyat va ehtimollik kabi umumiy semantik kategoriyalar mavjud bo‘lsa-da, ularning grammatik ifodalanish shakllari bir-biridan farq qiladi.

O‘zbek tilida ingliz tilidagidek yopiq va grammatik jihatdan maxsus shakllangan “modal fe’llar” guruhi mavjud emas. Modal ma’nolar ko‘pincha kerak, lozim, shart, zarur, mumkin, darkor kabi modal ma’noli birliklar hamda -A bil-, -A ol-, -sa bo‘l- kabi analitik konstruktsiyalar orqali ifodalanadi.[2] O‘zbek tilining ta’limiy korpusida kerak, darkor, zarur, lozim, mumkin kabi birliklar modal ma’noli mustaqil yoki vazifadosh birliklar sifatida qayd etiladi[3].

Pashtu tilida esa modal ma’noni ifodalash tizimida modal birliklar va fe’l mayllari o‘zaro chambarchas bog‘langan. Anne Boyle Davidning *Descriptive Grammar of Pashto and its Dialects* asarida باید / bāyad, دې / de va ښایي / ṣāyi modal birliklari alohida tavsiflangan.[4] Universal Dependencies’ning Pashtu grammatik tavsifida esa modal ma’noning modal birlik + subjunktiv fe’l, modal partikula + subjunktiv fe’l hamda tarkibida subjunktiv yoki konditsional shakl mavjud bo‘lgan murakkab fe’l konstruktsiyalari orqali ifodalanishi ko‘rsatiladi[5].

O‘zbek tilida modal konstruktsiyalar masalasi turli grammatik va qiyosiy tadqiqotlarda yoritilgan bo‘lsa-da, o‘zbek va pashtu tillarida modal ma’no ifodalovchi fe’l birikmalarining struktur-semantik va funksional-tipologik jihatdan bevosita qiyoslanishi alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi kerak, mumkin, shart konstruktsiyalarining pashtu tilidagi bāyad, ṣāyi, kawəlāy šəm, kedāy ši kabi vositalar bilan qiyoslanishi ikki tilning modal tizimidagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, o‘zbek va pashtu tillari turli til oilalariga mansub bo‘lib, biri turkiy, ikkinchisi hind-yevropa tillari tarkibidagi eroniy tillar guruhiga kiradi. Shunga qaramay, har ikki tilda insonning harakatga bo‘lgan munosabatini — uni bajarish zarurati, imkoniyati yoki ehtimolini — ifodalovchi o‘xshash funksional-semantik konstruktsiyalar mavjud.

O‘zbek va pashtu tillarida modal ma’no ifodalovchi fe’l birikmalarining strukturaviy va semantik xususiyatlarini aniqlash, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini qiyosiy-tipologik asosda yoritishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

O‘zbek va pashtu tillarida modal ma’no ifodalovchi asosiy fe’l konstruktsiyalarini aniqlash;

Zaruriyat, majburiyat, imkoniyat, ehtimollik va qobiliyat ma’nolarining ifodalanish usullarini tahlil qilish;

O‘zbek tilidagi kerak, lozim, shart, mumkin, -A bil-, -A ol- konstruktsiyalarini pashtu tilidagi bāyad, de, ṣāyi, kawəlāy šəm, kedāy ši vositalari bilan qiyoslash;

Modal konstruktsiyalarning sintaktik va semantik xususiyatlarini aniqlash;

Ikki tilning modal tizimidagi tipologik umumiylik va farqlarni belgilash. Tadqiqotda tavsifiy, semantik, qiyosiy-tipologik, funksional-semantik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda o‘zbek va pashtu tillaridagi modal ma’no ifodalovchi fe’l birikmalari yagona funksional-semantik maydon doirasida qiyoslanib, ularning deontik va epistemik modal ma’nolarni shakllantirishdagi roli tizimli ravishda tahlil qilinadi.

I. Asosiy qism

1. Modallik kategoriyasi va uning funksional-semantik tabiati

Modallik so‘zlovchining voqelik, harakat yoki hodisaga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi funksional-semantik kategoriya hisoblanadi. F. R. Palmer modallikni voqeaning o‘zidan ko‘ra, so‘zlovchining ushbu voqea haqidagi munosabati bilan bog‘liq kategoriya sifatida talqin qiladi.[1] Modallikning muhim turlaridan epistemik va deontik modallik ajratiladi. Epistemik modallik ehtimollik, taxmin va ishonch darajasini, deontik modallik esa zaruriyat, majburiyat, ruxsat va taqiqni ifodalaydi.

O‘zbek tilida ushbu ma’nolar kerak, lozim, shart, mumkin kabi modal birliklar hamda -a/-y + bil-, -a/-y + ol-, -sa bo‘l- kabi analitik konstruktsiyalar orqali ifodalanadi. Guérinning o‘zbek tilining zamon-aspekt-modallik tizimiga bag‘ishlangan tadqiqotida -A OL- va -A BIL- qobiliyat, MUMKIN va -SA BO‘L- imkoniyat, KERAK esa zaruriyat konstruktsiyasi sifatida alohida ko‘rsatilgan.[2]

Pashtu tilida ham modal ma’no bir necha grammatik vositalar orqali shakllanadi. Universal Dependencies tavsifida باید / bāyad “must, have to, should”, دې / de esa “let, should” ma’nolarini beruvchi modal partikula sifatida ko‘rsatiladi. Ular odatda subjunktiv fe’l bilan birikadi.[3] Pashtu grammatikasining keng tavsifida ham modal ma’no, fe’l mayllari va murakkab fe’l shakllari alohida

yoritilgan.[4] Demak, har ikki tilda modal ma’no leksik birlik, fe’l shakli va sintaktik konstruktsiyaning o‘zaro munosabati orqali yuzaga keladi.

2. O‘zbek tilida modal ma’no ifodalovchi fe’l birikmalari

O‘zbek tilida zaruriyat ma’nosining faol vositalaridan **kerak, lozim, shart, zarur** birliklari hisoblanadi. Ular ko‘pincha fe’lning harakat nomi shakli bilan birikadi:

Men borishim kerak.
Talaba topshiriqni bajarishi shart.
Mazkur masalani o‘rganish lozim.

Ushbu konstruktsiyalarda asosiy fe’l harakat mazmunini, modal birlik esa unga nisbatan zaruriyat yoki majburiyat munosabatini ifodalaydi. Kerak kengroq qo‘llanish doirasiga ega bo‘lsa, shart kuchliroq majburiyatni, lozim esa ko‘proq kitobiy-rasmiy uslubga xos zaruriyatni ifodalashi mumkin[2].

O‘zbek tilida imkoniyat va qobiliyatning fe’l asosidagi muhim vositalari -a/-y + ol- va -a/-y + bil- konstruktsiyalaridir:

U bu kitobni o‘qiy oladi.
U ingliz tilida yoza biladi.

Bu yerda -a/-y ravishdosh shaklini hosil qiladi, ol- va bil- esa yordamchi fe’l vazifasida kelib, imkoniyat yoki qobiliyat ma’nosini shakllantiradi. Guérin tadqiqotida mazkur konstruktsiyalar o‘zbek tilining modal tizimida ability constructions sifatida alohida ajratilgan.[2]

Imkoniyatning yana bir vositasi -sa bo‘l- konstruktsiyasidir:

Ertaga uchrashsak bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘zbek tilida modal ma’no ham modal-predikativ birliklar, ham analitik fe’l konstruktsiyalari orqali ifodalanadi.

3. Pashtu tilida modal ma’no ifodalovchi konstruktsiyalar

Pashtu tilida modal ma’no ifodalashda modal partikula va fe’l mayllari muhim o‘rin tutadi. Universal Dependencies tavsifiga ko‘ra, Pashtu tilida modal ma’noni ifodalashning asosiy usullaridan biri modal partikula + subjunktiv fe’l modelidir.[3]

Zaruriyat va majburiyat uchun باید / bāyad faol qo‘llanadi:

زه باید لاړ شم.

za bāyad lāṛ šəm

Men borishim kerak.

Bu yerda bāyad zaruriyatni, lāṛ šəm esa subjunktiv fe’l shaklini bildiradi. Universal Dependencies manbasida bāyad dan keyin subjunktiv shaklning zaruriyat yoki majburiyat ma’nosida qo‘llanishi bevosita qayd etilgan.[3]

O‘zbek tilidagi:

Men borishim kerak.

konstruktsiyasi bilan:

za bāyad lāṛ šəm

Konstruktsiyasi funksional jihatdan yaqin bo‘lsa-da, grammatik tuzilishi bir xil emas. O‘zbek tilida harakat nomi + egalik + modal birlik modeli ustun bo‘lsa, pashtu tilida modal partikula + subjunktiv fe’l modeli kuzatiladi.

4. Pashtu tilida imkoniyat va qobiliyat

Pashtu tilida imkoniyat va qobiliyat potensial konstruktsiyalar orqali ham ifodalanadi. Universal Dependencies tavsifida کولای شم / kawəlāy šəm “I can/may write”, ya’ni “yoza olaman” mazmunidagi potensial konstruktsiya sifatida keltiriladi[3].

Masalan:

.مکیلو مشـ یلاوک

kawəlāy šəm walīkam

“Men yoza olaman.”

Ushbu konstruktsiyada kawəl / کول “do” fe’lining potensial yordamchi vazifasidagi shakli va subjunktiv fe’l birikadi. Pashtu grammatik tavsifida kawəl va kedəl potensial konstruktsiyalarda yordamchi fe’l sifatida ishlatilishi ham qayd etilgan[3; 5].

Bu jihat o‘zbek tilidagi:

Men yoza olaman.

konstruktsiyasi bilan funksional jihatdan qiyoslanishi mumkin. Biroq ularni to‘liq grammatik jihatdan aynan bir xil konstruktsiya deb hisoblash to‘g‘ri emas.

5. Ehtimollik va epistemik modallik

Epistemik modallik ehtimollik, taxmin va so‘zlovchining voqea haqidagi ishonch darajasini bildiradi. O‘zbek tilida:

U kelishi mumkin.
U kelgan bo‘lsa kerak.

kabi konstruktsiyalar ehtimollik va taxminni ifodalaydi.

Pashtu tilida ehtimollikni ifodalovchi vositalardan biri ښايي / ṣāyi bo‘lib, u kontekstga qarab ehtimollik va boshqa modal munosabatlarni ifodalashi mumkin.[4]

Masalan:

ښايي هغه ځي.

ṣāyi hagha rāši

“U kelishi mumkin / Ehtimol, u kelar.”

Shu sababli o‘zbek tilidagi mumkin va pashtu tilidagi ṣāyi birliklarini faqat lug‘aviy jihatdan tenglashtirish yetarli emas. Ularning aniq modal qiymati kontekst orqali belgilanadi.

II. Muhokama

O‘zbek va pashtu tillaridagi materiallarning qiyosiy tahlili ikki tilning modal tizimida umumiy semantik kategoriyalar mavjudligini ko‘rsatadi. Har ikkala tilda ham zaruriyat, majburiyat, imkoniyat, qobiliyat va ehtimollik kabi modal ma’nolar faol ifodalanadi. Biroq ularning grammatik ifodalanish usullari farqlanadi.

Modal ma’no	O‘zbek tili	Pashtu tili
Zaruriyat	borish kerak	bāyad + subjunktiv
Majburiyat	borishi shart	bāyad + subjunktiv
Imkoniyat	bora oladi	kawəlāy šī / šəm
Qobiliyat	yoza biladi	kawəlāy šī / šəm
Ehtimollik	kelishi mumkin	ṣāyi + fe’l

Jadvaldan ko‘rinadiki, o‘zbek tilida modal ma’no ko‘pincha harakat nomi + modal birlik yoki fe’l + yordamchi fe’l modeli orqali shakllanadi. Pashtu tilida esa

modal partikula + subjunktiv hamda potensial yordamchi fe’l + subjunktiv konstruktsiyalari muhim o‘rin tutadi[2; 3].

Ayniqsa, kerak — bāyad juftligi zaruriyat va majburiyat ma’nosida funksional jihatdan yaqin:

U kelishi kerak.
هغه باید راشي.
hagha bāyad rāši.

Biroq bu ikki birlikni to‘liq grammatik ekvivalent deb bo‘lmaydi. O‘zbek tilida kerak modal-predikativ birlik sifatida harakat nomining egalik shakli bilan bog‘lansa, Pashtu tilida bāyad modal partikula bo‘lib, subjunktiv fe’l bilan birikadi[3].

Imkoniyat va qobiliyat sohasida ham funksional yaqinlik mavjud:

U yoza oladi.
kawəlāy šī / šəm + subjunktiv

Biroq Pashtu tilidagi potensial konstruktsiyalarda kawəl va kedəl yordamchi fe’llarining maxsus grammatik funksiyasi mavjudligi sababli ularni o‘zbek tilidagi ol- bilan faqat funksional jihatdan qiyoslash maqsadga muvofiq.[3; 5]

Shunday qilib, qiyosiy tahlilda modal birliklarning faqat lug‘aviy ekvivalentligi emas, balki modal ma’no turi, sintaktik modeli va grammatik funksiyasi asosiy mezon sifatida olinishi lozim.

III. Xulosa

Tadqiqot natijalari o‘zbek va pashtu tillarida modal ma’no ifodalashning umumiy semantik asoslari mavjudligini, biroq ularning grammatik ifodalanish mexanizmlari sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatdi.

O‘zbek tilida zaruriyat va majburiyat kerak, lozim, shart, zarur kabi modal birliklar, imkoniyat va qobiliyat esa -a/-y + ol-, -a/-y + bil-, -sa bo‘l- kabi analitik konstruktsiyalar orqali ifodalanadi[2].

Pashtu tilida zaruriyat va majburiyatning muhim vositasi bāyad bo‘lib, u odatda subjunktiv fe’l bilan birikadi. Imkoniyat va qobiliyat esa kawəlāy hamda kedəl/kawəl asosidagi potensial konstruktsiyalar orqali ifodalanishi mumkin.[3; 5] Epistemik ma’nolarni ifodalashda esa ṣāyi kabi modal vositalar muhim ahamiyatga ega [4].

Qiyosiy jihatdan eng muhim natija shundaki, ikki tilda modal ma’noning semantik kategoriyalari o‘xshash, ammo ularning grammatik modellashtirilishi turlicha. O‘zbek tilida harakat nomi va modal-predikativ birliklar, Pashtu tilida esa modal partikula, subjunktiv mayl va potensial yordamchi fe’llar o‘zaro birikib, modal mazmunni shakllantiradi.

Demak, o‘zbek va pashtu tillaridagi modal konstruktsiyalarni qiyoslashda ularni faqat so‘zma-so‘z tarjima asosida emas, balki funksional-semantik va strukturaviy jihatdan tahlil qilish zarur. Mazkur yondashuv ikki tilning modal tizimidagi tipologik umumiylik va farqlarni aniqroq ochib berishga imkon beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

Palmer, F. R. Mood and Modality. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

Guérin, V. The Uzbek Tense/Aspect/Modality System. Chicago: Center for East European and Russian/Eurasian Studies, University of Chicago.

Universal Dependencies. Pashto: Mood. Universal Dependencies Documentation. — Pashtu tilida bāyad, de, kawəlāy va subjunktiv shakllarning modal funksiyalariga oid grammatik tavsif.

David, A. B., Brugman, C. (eds.). Descriptive Grammar of Pashto and its Dialects. Berlin–Boston: De Gruyter Mouton, 2014. DOI: 10.1515/9781614512318.

Universal Dependencies. Pashto: Overview and Verbal System. Universal Dependencies Documentation. — Pashtu tilidagi modal birliklar, subjunktiv va potensial fe’l konstruktsiyalarining grammatik tavsifi.